

GILAM VA SANDIQ TERMINHLARI TAHLILIGA DOIR

Yuldasheva Farog'at
O'zDJTU katta
Ilmiy rahbar: o'qituvchisi
Mahmudova Gulhayo Ravshanbek qizi
O'zDJTU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tili lug'at tarkibidagi hunarmandchilik atamalari maqollar doirasida o'ziga xos semalari bilan namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mazkur leksemalarning semantik strukturasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Annotation: In this article, we can see that the terms of crafts contained in the Uzbek language dictionary are invisible in the framework of proverbs with their own symbols. In addition, the semantic structure of these lexemes is clearly visible.

Аннотация: В данной статье мы видим, что термины ремесла в лексике узбекского языка незаметны в рамках пословиц со своей символикой, кроме того, отчетливо видна семантическая структура этих лексем.

Kalit so'zlar: termin, leksema, ilmiy, professional, kasb-hunar, hunarmandchilik, gilamchilik, gilam, sandiq.

Key words: term, lexeme, scientific, professional, profession, craft, carpet making, carpet, box

Ключевые слова: термин, лексема, научный, профессиональный, профессия, ремесло, ковроткачество, ковер, шкатулка.

O'zbek tilining izohli lug'atida **termin** so'zi quyidagicha ta'riflanadi: Termin[lot. terminus-chek, chegara]Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Zargarlik terminlari...⁹¹ Har bir fan , kasb-hunar o'z terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikasiga ega.⁹² Demak, terminlar ilm-fanga va kasb-hunarga oid tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.Shuning uchun terminlar, asosan, ikkita katta turga: ilmiy terminlar va professional terminlarga ajratiladi.

Respublikamiz hududida qadimdan buyon turli kasb-hunar tarmoqlari rivojlanib kelmoqda. Sharq madaniyati deyilganda bevosita milliy hunarmandchilik ko'z oldimizga keladi. Sharq milliy hunarmandchiligi o'zining noyob sir-asrorlarini hozirgacha saqlab qolgan. Sharq madaniyatining asl namunalari Farg'ona vodiysida ham juda keng tarqalgan. Asosan, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon hududlari o'zbek milliy hunarmandchiligining o'chog'i hisoblanadi. Ushbu joylarda milliy hunarmandchilikning to'quvchilik, kashtachilik, pichoqchilik, do'ppido'zlik, kosibchilik, sandiqsozlik va boshqa ko'plab turlarini uchratish

⁹¹O'zbek tilining izohli lug'ati.IV jild.Toshkent,"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi",2008., 73-b.

⁹²Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent.,O'qituvch.,1980. 129-b.

mumkin. Ushbu sohalar oid tushunchalar o'ziga xos so'zlar-terminlar bilan ifodalanadi. O'zbek tilida professional terminlar yoki kasb-hunar leksiksi doirasi keng bo'lib, ko'pgina so'z-terminlarni o'z ichiga oladi.⁹³

Gilam to'qish kasbi gilamdo'zlik yoki gilamchilik terminlari bilan yuritiladi. Gilam [f.-tuksiz gilam, palos]. 1. Odatda jun, ipakdan to'qilib, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun xona devorlariga osib qo'yiladigan uy jihoz; badiiy to'qimachilik buyumi. 2. Ko'chma poet.Yer betini qoplab olgan maysa yoki gul. 3. Sport. Kurash tushiladigan sport anjomi; tatami.⁹⁴

Gilam termini o'zbek adabiy tilida leksik me'yor sifatida qabul qilingan. Bu termin Samarqand, Farg'ona gilamchilari hamda aholisi nutqida **gilam, qolim, sholcha, olacha, palos/polos, kigiz/kiyiz** kabi bir qator fonetik variantlari bilan qo'llanilib kelinmoqda.

Gilam leksemasiga to'xtalamiz:

*Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'r kamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda, bu hujrada qip-qizil **gilam**, uttalarda bo'z ko'r palar ko'r ilgan bo'lsa, munda ipak va adres ko'r palar....(A.Qodiriy "O'tkan kunlar")*

Ushbu misolda gilam leksemasi yerga to'shaladigan buyum ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, quyidagi o'rnlarda ko'chma ma'noni yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan.

Cho'pon qo'buz chalib, mollarin yoydi,

*Barqut **gilam** yozgan tepa, qirlarga.(Uyg'un)*

Yoki

*To'shab sohillarga jilvakor **gilam***

Daryo bo'lib oqar Amu, Siriga.

Bahor o'lkasining qon tomiriga

Sharqirab kiradi fusunkor ko'klam. (E.Vohidov)

Badiiy matnda qo'llanilgan gilam leksemalari yer yuzini qoplagan gul-chechak yoki maysa ma'nolarini anglatib metaforani yuzaga chiqaryapti.

*Har yili dam olishga borganimda onamga **gilam** paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi.(O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari")*

Bu o'rinda ma'no ko'chishi vazifadoshlik asosida yuz bergenini ko'rish mumkin.Gilam jihozni bezak berishdan tashqari uy haroratini issiq tutib turish uchun ham xizmat qiladi.Yuqoridaq matnda paypoq so'ziga aynan gilam leksemasini sifatlovchi holida keltirish ham aynan "issiqlik" semasini yuzaga chiqarish maqsadini amalga oshiryapti.

E'tiborimizni sandiq termini tahliliga qaratamiz:

Sandiq leksemasiga O'TIL da quyidagicha izoh berilgan: Sandiq[a. -quti, yashik, sandiq]Turli buyumlarni, bisotlarni solib qo'yishga mo'ljallangan, ochilib-yopiladigan

⁹³Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent.,O'qituvch.,1980. 130-b.

⁹⁴O'zbek tilining izohli lug'ati.I jild.Toshkent,"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi",2006., 501-b.

qopqoqli, qulf-kalitli, yashik shaklidagi uy-ro'zg'or buyumi.⁹⁵ Sandiq yasash bilan shug'ullanuvchi hunarmand sandiqchi, sandiqsiz atamalari bilan yuritiladi.

Quyidagi matnni tahlil qilamiz:

Ko'ngli yarimta bo'lsa, miyasi ham yarimtami? Uyingni o'g'ri bossa, o'g'lingni **sandiqa** solib qo'yib, qo'shnini chaqirmaysan. Hammaning ham farzandi o'ziga aziz (A.Qahhor "Asror bobo"). Bu o'rinda sandiq leksemasi bajaruvchi vazifasidan kelib chiqib, kinoya asosida ma'no ko'chiga xizmat qilyapti. Ritorik so'roq gapdan foydalaniqganlik mahorati kinoyani kuchaytirishga asos bo'lgan, deb hisoblaymiz.

Quyidagi misolda sandiq so'zi aynan buyum saqllovchi jihoz ma'nosida qo'llanilgan:

Mendan nima qolar:

Ikki misra she'r,

Ikki **sandiq** kitob,

Bir uyum tuproq. (M.Yusuf Saylanma)

Yoki

Baland jardan tashlandi,

Tillo **sandiq** daryoga.

Yoringman deb yuzlandi,

Qorabotir Zuhroga. (M.Yusuf Saylanma)

Bu o'rinda sandiq leksemasi tillo sifatlovchisi bilan birga qo'llanilib, ko'chim turlaridan bo'lgan epitetni yuzaga chiqaryapti.

Tahlillardan ma'lumki, har qanday so'z ayni bir paytda so'zshakl va termin sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, *sandiq*, *gilam*, *palos*, *do'ppi* va boshqalar. Kundalik iste'molda (nomutaxassislar nutqida) so'z, mutaxassislar nutqida esa termin sifatida gavdalanadi. Agar ularning barchasini so'z yoki tegishli soha terminlari sifatida talqin qiladigan bo'lsak, ularning chegarasi yanada aniqlashadi.

Demak, kasb-hunarga oid lug'aviy birliklar soha vakillari nutqida termin sifatida (*gilam to'qish*, *sandiq yasash*) qo'llansa, boshqalar nutqida esa so'z shaklida namoyon bo'ladi (*gilam xarid qildim*, *sandiq tanlagani bordik*).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари .-Тошкент: 1996 73-б
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010; 501-б
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси; 2008; 439-б
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. M: rus tili, 1981; 213-б
5. O'zbek tilining izohli lug'ati.III jild.Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2007., 439-б.

⁹⁵O'zbek tilining izohli lug'ati.III jild.Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2007., 439-б.